



OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING YOSHLAR SIYOSIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Ergasheva Gulhayo O'tkir qizi

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi rivojlanib borayotgan davrda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ommaviy axborot vositalarining yoshlar ma'naviyati va siyosiy tafakkurini shakllantirishdagi roli va ahamiyati, shuningdek, bu borada jahon va respublikamiz miqyosida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar haqida so'z boradi. Ommaviy axborot vositalarining bugungi tezkor rivojlanayotgan davr va uning yoshlar uchun ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, media makon, axborot, ommaviy madaniyat, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, yoshlar huquqlari, axborot kodeksi.

Abstract: this article, brought to your attention, is devoted to analysis the role of the mass media in today's developing era and its importance in shaping the spirituality and political thinking of young people, as well as about the effective reforms that are being implemented in this regard world widely and in our republic. This article will explain the importance of mass media in today's fast developing era and its youth.

Key words: mass media, media space, information, mass culture, internet, information and communication technologies, youth rights, information code.

Mamlakatimizning shiddat bilan rivojlanayotgan, har soat va daqiqada o'zgarishlarga boy xalqaro maydonda raqobatbardoshligi, ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot va boshqa sohalarda dunyo raqobat bozoriga tengma-teng kirib borayotganligi barchamizga ma'lum. O'zbekiston yuksalish yo'lining yangi davriga qadam qo'yishi bilan, mamlakatimiz Milliy rivojlanishning navbatdagi bosqichini boshlab berdi. Yoshlar xalqimiz, davlatimizning bebaho boyligi. Ular uchun barcha shart-sharoit yaratilgan, imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Davlatimiz rahbarining 2017 yil 5 iyuldagagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar eng avvalo, o'zbekiston yoshlarining sog'lom dunyoqarshini shakllantirish uchundir. Ushbu maqsadga yo'lida har bir yosh o'z oldiga kattta marralar qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish davlat va jamiyat uchun eng ustun vazifa bo'lishi zarur. Bu esa yosh avlod tarbiyasiga har doimgidanda ko'proq mas'uliyatli va befarq bo'lmashlikni talab etish bilan masalaning dolzarbligini ifodalaydi.[2]



Jamiyatni demokratlashtirish, yoshlarning siyosiy erkinligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri - Ommaviy axborot vositalaridir. Respublikamizda gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televide niye (kabelli, efirkabelli televide niye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalari hisoblanadi.[5] Demokratik islohotlarni hayotga tadbiq etish, yoshlar ongida yangicha dunyoqarshini shakllantirishda Ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati katta. O'zbekistonda ham siyosiy hokimiyat va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, bog'lab turuvchi, ular orasidagi shaffoflikni ta'minlab beruvchi birdan-bir vosita ham ommaviy axborot vositalaridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XV bobi, 81-82-moddalari "Ommaviy axborot vositalari"ga bag'ishlanadi. Unga ko'ra Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchhligli uchun javobgardir. (81-modda). Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. (82-modda). [1]

O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonunining (yangi tahriri) 5-moddasi esa «Ommaviy axborot vositalari erkinligi» deb nomlangan bo'lib, uning ikkinchi bandi quyidagicha: «Har kim, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ommaviy axborot vositalarida chiqish, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga egadir» -, deb bayon etilgan.[5]

Shu nuqtayi nazardan olib olib qaralganda, unga "to'rtinchchi hokimiyat" darajasida e'tibor berilgani beziz emas, albatta. Hozirgi kunda Ommaviy axborot vositalari nafaqat jamiyatni axborotdan xabardor qilish vositasi sifatida, balki jamiyat manfaatlari nuqtayi nazaridan davlat faoliyatini nazorat qilish vositasida bir qator vazifalarni amalga oshirib kelmoqda.

Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish, xalqaro ommaviy axborot vositalarida va xalqaro media makonda muntazam maqolalar chop etib borish, mamlakat erishgan yutuqlarni keng jamoatchilikka targ'ib qilish uchun brifinglar, davra suhbatlari, konfrensiyalar, muntazam o'tkazib borish, xalqaro maydonda O'zbekistonning ijobiyligi imijini ilgari suradigan xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan O'zbekiston haqidagi batafsil mualliflik materiallarini davriy asosda nashr etish kabi vazifalar "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ga binoan 2022-2026-yillarda amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. [6]

Dunyo media makoniga ommaviy axborot vositalari orqali chiqish mumkin bo'lgan hozirgi zamonda, axborotning xolisligi, to'g'riliqi mamlakatlarning xalqaro maydonidagi imijiga ta'sir qiladi. Shu jihatdan axborot siyosatida xatoga yo'l qo'yib



bo'lmaydi. Shiddat bilan yuksalib borayotgan fan-texnika asrida ommaviy axborot vositalarining, internetning va ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda uning yoshlar ma'naviyatiga, ularning yangiliklarga chanqoq ongiga salbiy ta'sirining ham guvohi bo'lyapmiz. Shu sababdan yoshlar ongi va dunyoqarshi masalasida gap ketganda axborot makonidagi turli xil zararli ma'lumotlardan saqlash mexanizmini ishlab chiqish juda muhimdir.

Axborotlar yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda asosan yoshlarning ongi va qalbi nishonga olinadi. Yoshlarning ongiga berilgan zarbalar ularni adashtiradi, o'z manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi. Ommaviy axborot vositalarida, xususan, internetda jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti, shaxsning, ayniqsa hali ongi shakllanib ulgurmagan yosh bo'g'lnarning dunyoqarshiga, g'oyaviy tarbiyasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalar afsuski oz emas.

Onlayn tizim materiallarining ma'lum bir qismi asosan noxolis, shubhali ko'rinishda bo'lib, axloqiy buzuqlik, tajovuzkorlik va zo'ravonlikka undaydi. Kompyuter tizimlaridagi malumotlarga ta'sir o'tkaza oladigan aniq huquqiy-me'yoriy hujjatlarning yo'qligi esa internet sahifalarida ochiqdan-ochiq millatchilik, irqchilik va fashizm g'oyalari targ'ib etilib, behayolik va zo'ravonlik ko'rinishlari aks etgan suratlar, giyohvand va portlovchi moddalarni tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalarining bemalol joylashtirilishiga imkon yaratmoqda. Internet sahifalarida aks ettirilayotgan bunday urinishlar barchamizdan muntazam ravishda sezgir va ogoh bo'lishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston globallashuv va axborot-kommunikasiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etdi". 2020-yil 23-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi tarixiy nutqida Tashkilotga a'zo davlatlarni **Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qollab-quvvatlashga** chaqirdi.[3]

Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish bo'yicha tashabbus jahon miqyosida yoshlar huquqlariga doir muhim masalalarni o'zida ifoda etgan xalqaro huquqiy hujjatni qabul qilishni nazarda tutuvchi ilk taklif ekanligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizning yoshlarga bo'lgan e'tiboridan dalolat.

Bir so'z bilan aytganda, Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasining qabul qilinishi butun dunyo yoshlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash va yoshlar siyosati masalalarida xalqaro hamkorlikni aniq soha va yo'nalishlarda olib borilishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Dunyo miqyosida ikki milliarddan ortiq yoshlarning tafakkurini har tomonlama rivojlantirish borasida aksariyat davlatlar va xalqaro tashkilotlarda yoshlar masalasi borasida bir qator ishlar



amalga oshirilmoqda. "BMT dunyo mamlakatlarida siyosiy makon ochilishini kuzatish uchun "Siyosatda yoshlar indeksi"ni ishlab chiqadi. Ushbu jarayon yosh avlod vakillarining talabidir".

Rivojlangan davlatlar statistikasiga yuzlanadigan bo'lsak Angliya bolalar himoyasi tashkilotiga ko'ra, "like"lar soni yoshlarga doimiy bosim va bezovtalik beradi. "11-12 yoshli maktab o'quvchilariga raqamli texnologiya savodxonligi majburiy o'qitilishi kerak. Maktablarda internetdan to'g'ri foydalanishni o'rgatishadi, lekin emotsiyonal ta'sir biroz chetda qoladi", - deydi Angliya bolalar himoyasi tashkilotidan Anni Longfild. Ba'zan his-tuyg'ulari to'liq shakllanib ulgurmagan bolalar taqdiri o'z joniga qasd qilish bilan tugashi ham mumkin. O'smirlar o'limi aynan ijtimoiy tarmoqlardagi bosim tufayli sodir bo'layotgani ilmiy isbotini topmagan bo'lsada, 2010-2015-yillarda ko'rsatkichlar keskin ko'tarilgan. Tadqiqotchilarning yana bir kuzatuvi - ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolganlar kuchli uyqusizlikka duchor.[9]

Yoshlar siyosiy madaniyati etarlicha shakllanmagan joyda siyosiy bo'shliq xosil bo'ladi. Bu esa oxir - oqibat jamiyatda "Ommaviy madaniyat", "Olomon madaniyati" degan yot mafkura va qarashlarning shakllanishiga olib keladi. Shuning uchun biz yoshlar ongida "Ommaviy madaniyat" ga bo'lgan xohishlarni, moyilliklarni vujudga kelmasligi uchun doimo yoshlar bilan ishslash, ular o`rtasida mutolaa madaniyatini hamda shu vatanga dahldorlik hissini orttirishga harakat qilishimiz zarur. Shundagina mamlakat ertasi bo'lgan yoshlarni "boy berilgan yoshlar" qatlidan saqlab qolishimiz mumkin. Bu borada ya'ni "boy berilgan yoshlar" qatlami vujudga kelib bo'lgan ayrim davlatlar endi nima qilarini bilmay turgan paytda, biz yoshlarimizni "Ommaviy madaniyat", "Olomon madaniyati"ning ta'sirlaridan saqlashimiz har birimizning ma'naviy burchimizdir.

2021-yilning 9-sentyabrida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT)ning OAV erkinligi bo'yicha tashkil etilgan Markaziy Osiyo media konferensiyasi gibridda o'tkazildi. 23-marta bo'lib o'tgan bu tadbirda qator mavzular bilan birga mintaqadagi OAV erkinligi tahlil qilinib, o'tgan davrda mamlakatda so'z erkinligi shakllantirishda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan fikrlar bildirildi.[4]

Biz qonunlarni keskinlashtirish, turli mavzulardagi chiqishlarni taqiqlash, ijtimoiy tarmoqlarni to'sib qo'yish va fikrlarni boshqarish orqali ijobiy natijalarga erishib bo'lmasligini ham yaxshi anglaymiz. Bularning bari aks samara beradi va vaziyatni yanada chigallashtiradi. Fikrimcha, qancha ovoz ko'p bo'lsa, tanlov hamda har qanday axborotning ishonchlilagini tekshirish imkoniyati yanada ko'proq bo'ladi. Shuningdek, biz, odamlarimizda tashqaridan boshqarishlarga qarshi immunitet shakllantirishimiz kerak. Axborot bozorida ham raqobatlashish oson emas, haqiqat shov-shuvli sarlavhalarga mag'lub bo'lmoqda. Ammo bizdagi OAVlarning aksari o'quvchi ishonchi hamda izzati eng asosiy sarmoya ekanini anglaydi.[4]

Bugungi kunda yoshlar orasida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayni vaqtida respublikada ijtimoiy



tarmoq foydalanuvchilari soni 46 million bo'lib, tarmoq foydalanuvchilarining aksariyatini yoshlar va voyaga yetmaganlar tashkil etadi. Mamlakat aholisining 18,9 mln. nafari yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 — 2020-yillarda 50 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilindi. [8]

Internet tarmog'idagi "UZ" domenida ro'yxatdan o'tgan domenlar soni hozirgi kunda 98 mingtadan oshgan bo'lsa-da, milliy resurslarga tashrif buyuruvchilarining o'rtacha oylik soni 60 milliondan ortiqdir. Bu o'z navbatida milliy kontent resurslarini yanada boyitishni taqozo etadi. Shu sababdan, o'quvchi, talaba-yoshlar va ayniqsa uyushmagan yoshlarning ongiga juda katta putur etkazishi mumkin bo'lgan behayolikni tarqatuvchi, diniy murosasizlikni keltirib chiqaruvchi, turli ko`ngilochar onlayn o'yinlar, totalizatorlar, oilaviy me'yirlarni rad etadigan hamda jamiyatda, fuqarolar o'rtaida zararli va axloqsiz g'oyalarini yoyadigan kontent va saytlarga qarshi tura olish har bir fuqaroning eng muhim vazifasidir.[7]

Mana shunday illatlardan, har xil tahdidlar, begona g'oyalar ta'siridan yoshlarimizni asrab-avaylash maqsadida Oliy Majlis yuqori palatasi ya'ni Senati 2022-yil 4-fevralda bo`lib o'tgan 23-yalpi majlisda internetda yoshlar va voyaga etmaganlar uchun milliy kontentni yo'lga qo'yish, ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi va ularni zararli, foydasiz axborotdan himoya qilish to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborishga qaror qildi. [7]

Ushbu ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan masala yuzasidan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi binoan, 2022 yil oxirigacha mamlakatimizda milliy ijtimoiy tarmoq va messengerlar yaratiladi hamda ular to`plagan auditoriyaga qarab soliq imtiyozlari berilishi ko`zda tutilmoqda. Bundan tashqari joriy yilning noyabr oyiga qadar axborot sohasini tartibga solish maqsadida "Axborot kodeksi" loyihasi ishlab chiqilishi ko`zda tutilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, el-yurtimizning, yoshlarimizning ezgu orzu-istiklarini ro'yobga chiqarish, ularning turli yomon yo'llarga kirib ketishlarini oldini olish, ularning siyosiy va huquqiy tafakkurini yukslatirish, bu yo'lida g'ov bo'lib turgan turli to'siqlarni, byurokratizm, loqaydlik, ta'magirlilik, korrupsiya kabi salbiy illatlarni dadillik bilan ko'tarib chiqib, ularga qarshi murosasiz jamoatchilik fikrini shakllantirish tom ma'noda ommaviy axborot vositalarining vazifasi. Ommaviy axborot vositalarining yoshlar siyosiy madaniyatiga salbiy tahdidlari sifatida g'araz maqsadlarda amalga oshirilayotgan tashqi g'oyaviy ta'sirini tadqiq va tahlil etish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, jamiyatda, uning zamonaviy boshqaruv tizimida oshkorlikni ta'minlash, jamoatchilik bilan aloqalarni takomillashtirishda ommaviy axborot vositalarining ana shu sa'y - harakatlari jamiyat boshqaruvi tizimida o'z samarasini ko'rsatishi shubhasiz.

Hozirda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan illatlar: soxta xabarlar berish, insonlarni o'zaro tarqoq holga keltirish, zo'ravonlikni targ'ib qilish va yolg'on xabarlar



tarqatish kabi masalalar bizning ham muammolarimizdir.Ushbu muammolarni oldini olish, qaysidir ma'noda yoshlarning javobgarlik hissini oshirish maqsadida milliy qonunchilik tizimimizga o'zgartirishlar kiritish kerak deb o'yaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (yangi tahriri 30.04.2023). www.lex.uz.

• O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmoni. 05.07.2017y. www.lex.uz

• O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 23 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi.

• S. Mirziyoyeva "Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT)ning OAV erkinligi bo'yicha tashkil etilgan Markaziy Osiyo media konferensiyasi". 09.09.2021y.

• O'zbekiston Respublikasining - "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri). - www.lex.uz.

• "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". 28.01.2022y. PF-60. www.lex.uz.

• O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarosi, 04.02.2022y. SQ-479-IV-son. www.lex.uz.

• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi 18.01.2021 yildagi 23-son qarori. www.lex.uz.

- Amerika ovozi "Yosh avlodga internetning ta'siri qanday". 12.01.2018y.